

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№12

2025
dekabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 695 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
<i>Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinova</i>	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
<i>Turayeva Gulizahro</i>	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
<i>Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor</i>	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
<i>Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li</i>	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL	43
<i>B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev</i>	
ISLOM MOLIYASI TAMOIYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
<i>Safarova Nasiba Gulmurod qizi</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
<i>Даниярова Улбосын Куатбаевна</i>	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
<i>Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna</i>	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
<i>Soliyev Azizbek Kamoldinovich</i>	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
<i>Голышева Елена Вячеславовна</i>	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
<i>Musayeva Dilnoza Dilshatovna</i>	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
<i>Уринов Адхамжон Акбарович</i>	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
<i>A.Xakimov, X.Xakimov</i>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
<i>Xaitov Shaxzod Sharipboyevich</i>	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
<i>Xusanova Maloxat Mengnorovna</i>	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
<i>Saidova Kamola Xoshimovna</i>	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	111
Tleuv Niyetulla Raxmanovich	
YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARINING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH	114
Mamajanova Odina Alisher qizi	
KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	119
Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi	
TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH	124
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION	128
Sadikov Shoxrux Shuhratovich	
BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	133
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	139
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA DOIR MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	145
Aripov Oybek Abdullayevich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI	150
Karimov Nodirbek	
УТИЛИЗАЦИЯ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА ДЛЯ СИНТЕЗА АНТИКОРРОЗИОННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ.....	155
Ситмуратов Тулкинбек Сабирбаевич, Баходиров Худайберган Баходир угли	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	163
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJIY INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	168
Nazarova A.N.	
АВТОМАТИЗИРОВАННАЯ СИСТЕМА РАСЧЁТА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ	172
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
BLOCKCHIAN, IOT (INTERNET OF THINGS) NING IQTISODIY SOHALARDA QO'LLANISHI	178
Avazov Ergash Xidirberdiyevich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA KELGUSI YILLAR PROGNOZI.....	182
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARI MOLIYAVIY HOLATINING NAZARIY JIHATLARI	190
Dildora Yuldasheva	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINING HOLATI	194
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
MAHALLA BUDJETI VA SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	200
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	



BUDJET TASHKILOTLARIDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING USLUBIY JIHATLARI.....	206
Azizova Zilola Lochinovna	
KOSHI – BUNYAKOVSKIY – SHVARS INTEGRAL TENGSIZLIGI VA UNING IQTISODIYOTDAGI ROLI.....	212
Saipnazarov Shaylovbek Aktamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В АГРОПРОДОВОЛЬСТВЕННЫЙ СЕКТОР УЗБЕКИСТАНА: ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ, ПЕРЕРАБОТКА БИОМАССЫ И СТРАТЕГИИ СОКРАЩЕНИЯ ПОСТУБОРОЧНЫХ ПОТЕРЬ	219
Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович	
HOVUZ BALIQCHILIGI XO'JALIKLARIDA REJALASHTIRISHNING MUDDATLARI VA BOSQICHLARI	227
Dosmuratova Shaxista Kengashovna, Menglikulov Bakhtiyor Yusupovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	233
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
KON-METALLURGIYA KORXONALARINING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA KPINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	237
Ergashov Botirjon Ergashovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	245
Ahmadjanov Ilyosbek	
ACCELERATING SOCIOECONOMIC DEVELOPMENT IN RURAL AREAS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	250
O.Q. Xudayberdiyeva, Z.B. Negmatullayeva	
ISSIQXONALARDAN FOYDALANISHNING OZIY-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI BO'YICHA MUAMMONI ASOSLASH VA UNING MILLIY MANFAATLARGA ALOQADORLIGINI ANIQLASH.....	256
Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA DON MAHSULOTLARI NARXLARINI SHAKLLANTIRISHDA BOZOR TAJRIBASI	260
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHNING JAHON TAJRIBASI: MUAMMO VA ISTIQBOL	264
Mamadaliyev Akmaljon	
ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ НАЛОГОВ В НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ.....	269
Зайналов Джахонгир Расулович	
FARG'ONA VODIYSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI	274
Murodxiyeva Feruza Majidovna	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI BARQARORLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYALARI.....	280
Abduliyeva Gulshan Maxmudovna	
LABOR MIGRATION IN UZBEKISTAN: SOCIO-ECONOMIC TRENDS AND DEVELOPMENT PROSPECTS	285
Razakova Barno Sayfiyeva	
U-NET BASED POLYP SEGMENTATION ON KVASIR-SEG DATASET: PERFORMANCE EVALUATION AND COMPARISON WITH STATE-OF-THE-ART METHODS	289
Mukhriddin Arabboev, Shohruh Begmatov, Sukhrob Bobojanov	



IQTISODIYOT TARMOQLARI VA SOHALARI RIVOJLANISHIDA SUN'IIY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI	300
Davletov Islambek Xalikovich, Normirzayev Ulmasjon Muzaffarjon o'g'li	
IQTISODIYOTDA SAMARALI RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROITLARI VA OMILLARI	304
Karimova Iroda Abdusattarovna	
"MENING MAKTABIM" LOYIHASINI OMMALASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	311
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzayeva	
ISSUES OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN THE EDUCATION MARKET	320
Inomiddin Imomov	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА ОЦЕНКИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С УЧЕТОМ СТЕПЕНИ НОВИЗНЫ И ЭФФЕКТОВ	324
Алиева Эльнара Аметовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ В СИСТЕМУ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ	331
Назарова Гулчехра Нурмуханбетовна	
ECONOMIC GROWTH: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECT	336
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	
AGROKLASTERDAGI XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQALAR MEKANIZMINING BUGUNGI HOLATI	342
Xaydarov Sardor Komil o'g'li	
SIMSIZ ALOQA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TEMIR YO'L STANSIYALARIDA POYEZDLAR HARAKATINI TASHKIL ETISH	350
Jonikulov Egamberdi Shavkat o'g'li	
GENDER SIYOSATI VA DEMOGRAFIK O'SISHNING INSON KAPITALIGA TA'SIRI	357
Ruzmetova Gulira'no Atabekovna	
СОСТОЯНИЕ ВИТАМИННО-МИНЕРАЛЬНОГО ОБМЕНА (ВИТАМИН D, КАЛЬЦИЙ, МАГНИЙ, ФОСФОР) У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА С ОСТРОЙ ПНЕВМОНИЕЙ НА ФОНЕ ВЕГЕТАТИВНЫХ ДИСФУНКЦИЙ	364
Абдурахмонов Жасур Нематович, Шарипова Олия Аскаровна, Бахронов Шерзод Самиевич	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA TARKIBIY TUZILISHI	373
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОЦЕНКИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ АО ХУДУДГАЗТАЪМИНОТ	377
Хусанов Дурбек Нишанович	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTIDA NAZORAT GABARIT QURILMALARINING ZAMONAVIY HOLATI, TAHLILI VA HARAKAT TAKRIBI GABARITLARINI ANIQLASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH	384
Xidirov Erkin Irgashovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA SAMARALI TAQSIMLASHDA RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI	391
Amanbaev Amanali Ortazbaevich	
GLOBAL DARAJADA FAOLIYAT YURITADIGAN BRONLASH TIZIMLARINING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI	396
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA INFRATUZILMA LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI	403
Akmal Shodiyev	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA LIZING MUNOSABATLARI HISOBİ	408
Inamov Abdusalom Muhamadovich, Inomov Sardor Abdusalomovich, Inomov Hasanboy Abdusalom o'g'li	



O'TKIR BRONXOLIT BILAN KASALLANGAN BOLALARDA KATAMNEZNING EKOLOGIK OMILLAR TA'SIRIDA UZIGA XOS KECHISHI.....	412
Azimova Kamola Talatovna	
THEORETICAL ASPECTS OF STUDYING CONCEPTS RELATED TO YOUTH TOURISM	416
Norboyev Allayor Ismoilovich, Mansurova Zebuniso Abdurashidovna	
THE ESSENTIAL STRATEGIES WAYS OF SERICULTURE INDUSTRY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	420
Khojimatov Ravshanbek Rasuljonovich	
BLENDED LEARNING PLATFORMASI KANSEPSIYASI, ARXITEKTURASI VA FUNKSIONAL TUZILMASI.....	425
Qobulova Madina Tuxbatillo qizi, Mirzaaxmedov Muxammadbobur Karimberdiyevich	
ASALARICHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA FAROVONLIGIGA TA'SIRI: IQTISODIY TAHLIL VA EKONOMETRIK BAHOLASH	430
Kuanishbay Berdimuratov	
MARKETING EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHGA OID XORIJIY YONDASHUVLAR TAHLILI	434
Sobirov Azizbek Avazbekovich	
УЧЕТНО-АНАЛИТИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ ОРГАНИЗАЦИИ	443
Бабахонов Бабуржон Шухрат угли	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA SOLIQ IMTIYOZLARINI QO'LLASH MASALALARI.....	449
Ibroximov Muxammadjon Abdullajanovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA LOGISTIKA BOSHQARUVINING RAQAMLI MODEL VA UNING SAMARADORLIGI	453
Olimova Bahora Shuxratovna	
СУЩНОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	463
Муминходжаева Дилноза Рамизовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И АНАЛИТИЧЕСКИХ ПЛАТФОРМ	468
Дурманов Акмал Шаймарданович	
УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫМ РАЗВИТИЕМ СОЦИАЛЬНОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РЕФОРМ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ЗДРАВООХРАНЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА.....	477
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI.....	483
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA-INNOVASION JARAYONLARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	489
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
AGROKLAFTERLARDA ICHKI SOTISH JARAYONIDA TRANSFERT BAHOLARNI BELGILASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	495
Eshmuradov Ulug'bek Tashmuratovich	
INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF MICE TOURISM AND ITS ADAPTATION TO THE CONDITIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	501
Ilkhomova Gulnoza Zayniddin kizi	
MUHANDISLIK KONSTRUKSIYALARIDA MURAKKAB SIRT LARNI CHIZMA GEOMETRIYA YORDAMIDA TAHLIL QILISH.....	507
Qutbtiddinov Hikmatillo Qudratillo o'g'li	
TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI	512
Umarova Munira Muxitdinovna	



JINDA ARRALI SILINDR TISHLARIDAN TOLANI AJRATISH JARAYONINI HAVO OQIMI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRUVCHI ENERGIYA TEJAMKOR QURILMANI MODELLASHTIRISH.....	516
Mirzakarimov Mirsharofiddin Mirzaabdurahimovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI TOMONIDAN ISHLAB CHIQARILGAN MAHSULOTLARNI XORIJGA EKSPORT QILISH MEKANIZMLARI	524
Matkarimov Anvar Tajimatovich	
MUHANDISLIK KONSTRUKSIYALARIDA MURAKKAB SIRTLARNI CHIZMA GEOMETRIYA YORDAMIDA TAHLIL QILISH	528
Qutbtiddinov Hikmatillo Qudratillo o'g'li	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	533
Ismailov Bobir Salomovich	
QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA KAPITAL QO'YILMALAR XUSUSIYATLARI VA ULAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH	540
Baxriyev Muxiddin Sheraliyevich	
QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA ASOSIY VOSITALAR VA ULAR BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI.....	545
Fayzullayev Murodjon Nematulayevich	
O'ZBEKISTONDA KLASSTER IQTISODIYOTI: INVESTITSİYALAR, EKSPORT VA SANOAT ISHLAB CHIQARISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI (2022-2024-YILLAR KESIMIDA).....	550
O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich, Jabbarov Majidbek Erzodovich, Ruzmetova Gulira'no Atabekovna	
GLOBAL YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA EKOLOGIK, IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARNING TAHLILI	556
M.M.Muminova	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SMART TURIZM SHAROITIDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON ISTIQBOLLARI	565
Najmidinov Azizbek Bahrom o'g'li	
ТЕКУЩИЕ УГРОЗЫ И ВЫЗОВЫ, СВЯЗАННЫЕ С МИГРАЦИОННЫМИ КРИЗИСАМИ	571
Бегматов Хусанбек	
ELEKTRON TIJORAT SEKTORI UCHUN ONLAYN REKLAMA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	575
Rajabova Dilbar Ixtiyor qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON MEVA-SABZAVOTCHILIK SOHASIDA MAHSULOT YETISHTIRISHDAN TORTIB UNI BOZORGA CHIQARISHGACHA BO'LGAN JARAYONDA NEYROMARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	582
Sadiy Shukrillo Asatillo o'g'li	
YOSH TADBIRKORLAR FAOLIYATIDA INNOVATSION G'OYALARNING AMALIY AHAMIYATI	590
Ergashev Oybek Xaydaraliyevich	
ТЕХНОЛОГИЯ НЕТРАДИЦИОННОГО СБАЛАНСИРОВАННОГО КОМБИКОРМА, С ОБОГАЩЕННЫМ БЕЛКОМ И ФЕРМЕНТАМИ СОСТАВОМ ИЗ ГРИБКА PLEUROTUS OSTREATUS.....	594
Ниезов Хусан Ниез угли	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH INDIKATOR TIZIMINING AHAMIYATI	601
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISH BO'YICHA DAVLAT SIYOSATI	608
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
TO'QIMACHILIK KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI BOSHQARISH JARAYONI VA TIZIMI	612
Xonkeldiyeva Komilaxon Ravshanjon qizi	



SPORT SANOATINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA OID XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI.....	616
Xamraqulov Ixtiyor Baxtiyorovich	
MARKAZLASHTIRILGAN DISPATCHERLIK TIZIMIDA POEZDLAR HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA AVTOMATLAR NAZARIYASIGA ASOSLANGAN INTEGRATSIYALASHGAN MATEMATIK MODEL.....	620
Muhiddinov Obidjon Omonjon o'g'li	
ПРОЦЕНТНЫЙ РИСК ПО КРЕДИТАМ: АНАЛИЗ, ОЦЕНКА И УПРАВЛЕНИЕ.....	627
Абдуллаев Шахобиддин Шамсиддинович	
REDUCTION OF GREENHOUSE GAS EMISSIONS: EMISSION QUOTAS OR MANDATORY CONTROL TECHNOLOGIES	633
Bobonov Doston Abdumo'min o'g'li, Qozoqboyev Jasur Abduvali o'g'li	
AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA).....	637
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
ПОЛУЧЕНИЕ СТОМАТОЛОГИЧЕСКОГО ЦЕМЕНТА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ.....	643
Арипова Мастура Хикматовна, Ташбаев Джахангир Назим угли	
МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОМЫШЛЕННЫХ ГОРЕЛОК И ИССЛЕДОВАНИЕ ИХ ТЕПЛОВОЙ НАГРУЗКИ	652
Ражабов Азамат Тоирович	
QISHLOQ XO'JALIK TEXNIKALARI MARKETINGI VA UNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI.....	658
Xolmirzayev Bobur Mansurovich	
ПРИМЕНЕНИЕ СУБСИДИАРНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ АНКРОТСТВА: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И ВОЗМОЖНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	663
Хамзина Динара Рашатовна	
YASHIL REKREATIONS TURIZM KONSEPSIYASINI JORIY ETISHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI.....	669
Baxriyeva Zarina Nasimovna	
KORXONALARDA DIVERSIFIKATSIYA SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA IQTISODIY MEXANIZMLARINING O'RNI	672
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	
QALINLIGI 2 MM BO'LGAN TASMALI LISTLARNI SOVUQ HOLATDA PROKATLASH TEKNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH	679
Yusupov Abdulaziz Abdullajanovich, Saydumarov Botir Muradovich, Arslonov Asadbek G'aybulla o'g'li	
HUDUDIIY TARMOQLANGAN AVTOMOBIL YO'LLARI MUHANDISLIK INSHOOTLARI KOMPLEKSINI LOYIHALASH VA QURISH JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH.....	682
Zikrayev Akmaljon Alimovich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLARNI OSHIRISH YO'LLARI.....	688
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLARNI OSHIRISH YO'LLARI

Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi

TDIU mustaqil izlanuvchisi

ostonaqulovagulchexra@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-1345-3262>

Annotatsiya. ushbu maqolada tijorat banklari daromadlarining shakllanish mexanizmlari, ularni oshirishga ta'sir etuvchi omillar hamda daromadlar tarkibining zamonaviy bank amaliyotidagi o'rni tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida foizli va foizsiz daromadlar o'rtasidagi optimal nisbatni ta'minlash, aktiv va passiv operatsiyalarning rentabelligini oshirish, kredit portfeli sifati va foiz marjasini optimallashtirish kabi omillar banklar daromadlarini ko'paytirishning asosiy yo'nalishlari sifatida baholangan. Shuningdek, bank daromadlarini oshirishda xizmatlar diversifikatsiyasi, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi, risklarni boshqarishning samarali tizimini joriy etish hamda qimmatli qog'ozlar bozori imkoniyatlaridan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Maqola yakunida tijorat banklari daromadlarini barqaror va uzoq muddatli o'sishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, daromadlarni oshirish, foizli daromadlar, foizsiz daromadlar, foiz marjasi, kredit portfeli sifati, bank operatsiyalari samaradorligi, xizmatlar diversifikatsiyasi, raqamli bank xizmatlari, qimmatli qog'ozlar bozori, aktiv va passivlarni boshqarish, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish.

Abstract. This article systematically analyzes the mechanisms of formation of commercial banks' income, factors influencing their increase, and the role of the income structure in modern banking practice. In the course of the research, factors such as ensuring the optimal ratio between interest and non-interest income, increasing the profitability of active and passive operations, optimizing the quality of the loan portfolio and interest margin were assessed as the main directions of increasing banks' income. Also, the importance of service diversification, the development of digital banking services, the introduction of an effective risk management system, and the use of securities market opportunities in increasing bank income are highlighted. At the end of the article, scientifically based practical proposals are put forward to ensure stable and long-term growth of commercial banks' income.

Keywords: Commercial banks, revenue growth, interest income, non-interest income, interest margin, loan portfolio quality, efficiency of banking operations, service diversification, digital banking services, securities market, asset and liability management, financial stability, risk management.

Аннотация. В данной статье систематически анализируются механизмы формирования доходов коммерческих банков, факторы, влияющие на их рост, и роль структуры доходов в современной банковской практике. В ходе исследования были оценены такие факторы, как обеспечение оптимального соотношения процентных и непроцентных доходов, повышение рентабельности активных и пассивных операций, оптимизация качества кредитного портфеля и процентной маржи как основные направления роста доходов банков. Также подчеркивается важность диверсификации услуг, развития цифровых банковских услуг, внедрения эффективной системы управления рисками и использования возможностей рынка ценных бумаг для увеличения доходов банков. В заключение статьи предлагаются научно обоснованные практические рекомендации по обеспечению стабильного и долгосрочного роста доходов коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, рост доходов, процентные доходы, непроцентные доходы, процентная маржа, качество кредитного портфеля, эффективность банковских операций, диверсификация услуг, цифровые банковские услуги, рынок ценных бумаг, управление активами и пассивами, финансовая стабильность, управление рисками.

KIRISH

Global moliya bozorlaridagi raqobatning kuchayishi, bank xizmatlarining diversifikatsiyasi, raqamli texnologiyalar rivojlanishining tezlashuvi va mijozlar ehtiyojlarining o'zgarishi banklarning daromad olish strategiyalarini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Xususan, foizli va foizsiz daromadlarga asoslangan



daromad strukturasi optimallashtirish, aktiv va passiv operatsiyalar rentabelligini oshirish, yangi moliyaviy mahsulotlar va innovatsion xizmatlarni joriy etish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda raqamli bank xizmatlaridan samarali foydalanish daromadlarni ko'paytirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida tijorat banklari alohida strategik o'rin tutadi. Banklarning daromad bazasining mustahkamligi nafaqat moliya tizimining samaradorligini belgilaydi, balki iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish, investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash va aholiga ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar sifatini oshirishda ham muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun tijorat banklari daromadlarini shakllantirish va ularni oshirish mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF–5992-son Farmonida ham banklarning daromad manbalarini kengaytirish, kapital bozoridagi faoliyatini kuchaytirish, korporativ obligatsiyalarni chiqarish va joylashtirish hamda xalqaro moliya bozorlari bilan integratsiyani chuqurlashtirish zarurligi alohida ta'kidlangan. Mazkur islohotlar bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va tijorat banklari daromadlarini ko'paytirish uchun institutsional asos yaratmoqda.[1] Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarining daromadlarini oshirish yo'llarini o'rganish, daromadlar tarkibiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, innovatsion bank mahsulotlari va xizmatlari orqali daromad bazasini kengaytirish mexanizmlarini tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu maqolada tijorat banklari daromadlarining shakllanish jarayonlari, ularni oshirishning strategik yo'nalishlari, raqamli transformatsiya va kapital bozorlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklari daromadlarini oshirish, ularning barqarorligini ta'minlash hamda rentabelligini yuqori darajada saqlab qolish masalasi iqtisodiyotning barcha bosqichlarida dolzarbligini yo'qotmagan ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Bank tizimida daromadlarni samarali boshqarish masalasi global moliyaviy bozorlardagi o'zgaruvchanlik, raqobatning kuchayishi, fintech texnologiyalarining rivojlanishi va mijozlar segmentining kengayib borishi sharoitida yanada muhim tus olmoqda. Shu sababli tijorat banklarining daromadlarini oshirish bo'yicha ilmiy yondashuvlar, nazariy maktablar, xalqaro tajribalar hamda milliy bank sektorida amalga oshirilayotgan islohotlar mazkur tadqiqotning mustahkam ilmiy-nazariy asosini shakllantiradi.

Xalqaro ilmiy manbalarda tijorat banklari daromadlarini oshirishga bevosita ta'sir etuvchi omillar keng qamrovda o'rganilgan. Jumladan, rivojlangan davlatlar olimlarining tadqiqotlari foizli va foizsiz daromadlarning optimal nisbatini shakllantirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, xizmatlar spektrini kengaytirish, risklarni boshqarish strategiyalarini takomillashtirish hamda aktiv va passivlar boshqaruvining samaradorligini oshirish daromadlar o'sishining muhim determinantlari ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, moliya bozorlari integratsiyasi, likvidlikni boshqarish, kredit portfeli sifati va foiz marjasi daromadlarning o'sish sur'atlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslangan.

O'zbekiston bank tizimida olib borilayotgan tizimli islohotlar kapital bozorini rivojlantirish, korporativ obligatsiyalar emissiyasini kengaytirish, raqamli moliyaviy xizmatlarni joriy etish, bank mahsulotlari diversifikatsiyasini chuqurlashtirish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish tijorat banklari daromadlarini oshirishga xizmat qiluvchi muhim institutsional omillar sifatida e'tirof etilmoqda. Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham daromad manbalarini kengaytirish, foizsiz daromadlar ulushini oshirish va xizmatlar innovatsiyasining daromadlilikka ta'siri masalalariga alohida e'tibor qaratilganini ko'rsatadi. Shu bois adabiyotlar tahlili tijorat banklari daromadlarini oshirishning nazariy asoslarini ochib berishga, xalqaro va mahalliy ilmiy yondashuvlarni umumlashtirishga hamda ushbu yo'nalishda mavjud ilmiy qarashlarning rivojlanish dinamikasini aniqlashga xizmat qiladi. Jumladan, A.Saunders, M.Cornettlar "bank daromadlariga ta'sir etuvchi risklar – kredit, likvidlik va bozor risklari daromadlilik bilan o'zaro bog'liq ekanini ta'kidlaydi".[2] F. Mishkin "bank daromadlarining barqarorligi pul-kredit siyosati samaradorligini belgilashini ilmiy asoslaydi". [3] P.Rose, S. Hudginslarning asarlarida "banklar daromadlarining ko'payishida xizmatlar diversifikatsiyasining o'rni keng yoritilgan.[4] R.Levine "bank tizimi rivoji iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri ekanini asoslab bergan. [5] A.H.Demirgüç-Kunt Huizinga esa "bank foydasiga ichki boshqaruv ko'rsatkichlari va makroiqtisodiy omillar sezilarli ta'sir qilishi ko'rsatiladi" deya ta'kidlaydi. [6] A.Berger, C.Bouwmanlar "bank likvidligini to'g'ri boshqarish daromad barqarorligining muhim omili ekanligi ilmiy isbotlangan.[7] P.Athanasoglou, M.Delis, C.Staikouraslar tomonidan "foiz marjasi, xarajatlarni boshqarish va kredit portfeli sifati rentabellikka eng kuchli ta'sir etuvchi omillar ekanligi qayd etiladi". [8] Mahalliy olimlardan A.Karimov "bank islohotlari daromad manbalarini kengaytirishga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslagan".[9] Yana bir mahalliy olim N.To'laganova "foizsiz daromadlarning bank barqarorligidagi strategik ta'sirini o'rganib chiqqah".[10]


Umuman olganda, mavjud ilmiy tadqiqotlar tijorat banklari daromadlarini shakllantirish va boshqarish jarayoniga risklarni boshqarish, diversifikatsiya, makroiqtisodiy omillar, aktivlar sifati, likvidlik, foiz siyosati va boshqaruv samaradorligi kabi omillar kompleks ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Shu bois daromadlar strukturasi optimallashtirish zamonaviy bank boshqaruvining eng muhim strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy xujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Tijorat banklari faoliyatining 2024-yil yakunlari bo'yicha tijorat banklari faoliyatining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili bank daromadlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar va mavjud cheklovlarni aniqroq ko'rsatib berdi. Xususan, bank tizimi aktivlari bo'yicha rentabellik pasaygan bo'lib, 2025-yil 1-yanvar holatiga soliq to'langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati 1 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024-yil boshiga nisbatan 1 foiz bandga kamaygan. Rentabellikning pasayishiga qaramay, bank aktivlari hajmining yil davomida 18 foizga o'sishi aktivlar kengayish jarayonida daromadlarning yetarli sur'atlarda oshmayotganligini ko'rsatadi. Sof foydaning kamayishiga, ayniqsa, kredit va lizing portfeli bo'yicha yo'qotishlarni qoplash uchun yaratilgan zaxiralarning 41 foizga ortishi sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Bank kredit portfelining sifati bo'yicha kuzatilgan o'zgarishlar ham daromadlilik dinamikasiga bevosita ta'sir qilmoqda. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, substandart va muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 21 foizni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 1 foiz bandga oshgan. Ushbu o'sish kredit risklarining kuchayishi, aktivlar sifati pasayishi va banklar tomonidan qo'shimcha zaxira ajratish hajmining ortishini taqozo qilmoqda. Natijada rentabellik yuklamasi oshib, sof foyda kamayishiga olib kelgan.

Shu bilan birga, bank tizimining xatarlarga bardoshlilik holati 2024-yilda sezilarli darajada yaxshilangan. Likvidlilikni qoplash koeffitsiyenti 194 foizni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 29 foiz bandga oshgan. Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti ham 4 foiz bandga o'sib, 115 foiz darajada shakllangan. Kapital monandlilik koeffitsiyenti belgilangan minimal talablardan yuqori bo'lib, 2025-yil 1-yanvar holatiga 17 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar banklarining moliyaviy barqarorligi, shoklarga nisbatan chidamliligi va daromadlarni oshirish uchun yetarli kapital salohiyatiga ega ekanini ko'rsatadi.



1-rasm. Tijorat banklari aktivlarining hamda moliyalashtirish manbalari dekompozitsiyasi 1

Daromadlar tarkibida kreditlar asosiy manba bo'lib qolmoqda. 2025-yil 1-yanvar holatiga bank tizimi jami aktivlari 769 trln so'mni tashkil etgan bo'lib, ularning 67 foizi kreditlar hissasiga to'g'ri kelgan. Bu holat kreditlash faoliyatining banklar uchun asosiy daromad drayveri bo'lib qolayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga,


1 <https://cbu.uz/uz/financial-stability/report/> sayti ma'lumotlari



investitsiyalar va qimmatli qog'ozlar portfeli hajmining jami aktivlardagi ulushi 16 foizga yetgani banklar uchun daromad manbalarini diversifikatsiya qilish borasida imkoniyatlar kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Bank tizimi majburiyatlari tarkibida depozitlar ulushi ortib borayotgani resurs bazasining barqarorligiga ijobiy ta'sir qilmoqda. 2024-yilda banklar tomonidan jalb qilingan depozitlarning jami passivlardagi ulushi 3 foiz bandga ko'tarilib, 40 foizga yetdi. Bu depozitlarning arzon va barqaror moliyalashtirish manbasi sifatidagi rolini mustahkamladi. Kreditlar esa banklarning asosiy moliyalashtirish manbalaridan biri bo'lib, uning passivlardagi ulushi 31 foizni tashkil etmoqda. Umuman olganda, tahlil shuni ko'rsatadiki, kredit portfeli sifati, zaxiralarning ortishi va foizli xarajatlarning ko'payishi rentabellikni cheklayotgan bo'lsa-da, likvidlik, kapital yetariligi va resurs bazasining kengayishi banklar daromadlarini oshirish uchun zarur makro- va mikroiqtisodiy shart-sharoitlarni yaratib bermoqda. Mazkur tendensiyalar daromadlarni ko'paytirish strategiyasini ishlab chiqishda kredit riskini boshqarish, diversifikatsiya jarayonini kuchaytirish hamda barqaror moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanishni talab etadi.

Tijorat banklarining kapital yetariligi daromadlarni oshirish imkoniyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, 2024-yil yakunlari bo'yicha ushbu ko'rsatkichlarning minimal talablardan yuqori shakllanib kelayotgani banklarning moliyaviy barqarorligi va qo'shimcha risklarni qabul qilish qobiliyatining mavjudligini ko'rsatadi. Bank tizimi va tizimli ahamiyatga molik banklar bo'yicha kapital monandlilik koeffitsiyenti mos ravishda 17,4 va 16,8 foizni tashkil etgan bo'lib, bu banklarning risklarni qoplash salohiyati yetarli ekanidan dalolat beradi. I darajali asosiy kapital monandlilik koeffitsiyentining 14,3 foiz darajasida shakllanishi esa banklarning yuqori sifatli kapitali ulushi barqarorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, 2024-yilda banklarning kapital yetarililik ko'rsatkichlari bo'yicha dispersiya kengaygani tizimdagi kapital taqsimotining notekisligini namoyon qilmoqda.



2-rasm. I darajali asosiy kapital monandlilik koeffitsiyenti o'zgarishining taqsimlanishi hamda bank tizimi rentabelligi ko'rsatkichlari²

Bank aktivlarining tavakkalchilik darajasi yuqoriligicha qolmoqda. 2024-yil yakunida tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning ulushi 93 foizni tashkil etdi, bu esa banklarning riskni qabul qilish darajasining yuqoriligidan darak beradi. Mazkur ko'rsatkichning Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlariga nisbatan yuqoriroq shakllanishi O'zbekistonda ehtiyotkorlik talablariga asoslangan tartib-taomillar ustuvorligini ifodalaydi. Shu bilan birga, tavakkalchilikka tortilgan aktivlar rentabelligining 1,4 foiz darajasida shakllanishi bank aktivlarining daromadlilik potensialining pasayayotganidan dalolat beradi. 2024-yilda bank tizimi rentabellik ko'rsatkichlarining pasayish tendensiyasi yaqqol kuzatildi. Sof foydaning 7 trln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 44 foizga qisqarishi kapital rentabelligi (ROE)ning 6,6 foiz darajasida shakllanishiga olib keldi. Aktivlar rentabelligi (ROA) ham

² <https://cbu.uz/uz/financial-stability/report/> sayti ma'lumotlari

pasayish tendensiyasini davom ettirib, 2024-yil yakuniga kelib 1,4 foizni tashkil etdi. Operatsion xarajatlarning 21 foizga, aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar uchun ajratilgan zaxiralarning 45 foizga oshishi daromadlilikning pasayishida asosiy omillar bo'lgan.

Bank tizimining barqaror moliyalashtirish salohiyati (NSFR) ijobiy dinamikada shakllandi. 2024-yilda bank tizimi bo'yicha NSFR ko'rsatkichi 115 foizni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 4 foiz bandga oshdi. Tizimli ahamiyatga molik banklar uchun NSFR 114 foiz darajasida shakllanib, mediananing 124 foiz bo'lishi banklar o'rtasidagi moliyalashtirish barqarorligi darajasidagi farqning mavjudligini ko'rsatadi. Likvidlikni qoplash me'yori (LCR) bo'yicha ham sezilarli o'sish kuzatilib, 2024-yilda tizim bo'yicha ushbu ko'rsatkich 194 foizga yetdi; tizimli banklar bo'yicha esa 193 foizni tashkil etdi. Mazkur holat banklarning qisqa muddatli likvidlik bosimlariga nisbatan barqaror ekanini bildiradi.

Yuqori likvidli aktivlar hajmining oshishi ham banklarning barqaror faoliyat yuritishi va daromadlarni oshirish salohiyatini mustahkamladi. 2024-yil yakuniga kelib ushbu aktivlarning jami aktivlardagi ulushi 17,3 foizni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 2,5 foiz bandga ko'paydi. Bunda davlat qimmatli qog'ozlari portfelining 20 trln so'mga oshirilgani muhim omil bo'ldi.

Kreditlar tarkibida chakana kreditlash ulushining ortib borayotgani kredit portfeli diversifikatsiyasining rivojlanayotganini ko'rsatadi. 2024-yil yakunida kreditlarning 33 foizi jismoniy shaxslarga to'g'ri kelib, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2 foiz bandga oshdi. Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar jami kreditlarning 67 foizini tashkil etgan. Yuridik va jismoniy shaxslarga berilgan kreditlarning YalMga nisbati mos ravishda 24 va 12 foiz darajasida shakllanib, kreditlashning iqtisodiyotdagi o'rnini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda kreditlarning YalMga nisbati mintaqaviy davlatlarga nisbatan yuqoriroq shakllangan bo'lsa, depozitlarning majburiyatlardagi ulushi pastroq darajada. 2025-yil 1-yanvar holatiga depozitlarning majburiyatlardagi ulushi 47 foizni tashkil etgan bo'lib, mintaqaviy medianadan pastdir. Bu esa tijorat banklari uchun barqaror va arzon resurs bazasini kengaytirish zaruriyatini ko'rsatadi.

Umuman olganda, yuqoridagi ko'rsatkichlar tijorat banklari daromadlarini oshirish strategiyalarini shakllantirishda aktivlar sifati, risklarni boshqarish, likvidlikni samarali taqsimlash, barqaror moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va kredit portfelini diversifikatsiya qilish omillarining ustuvor ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Ushbu faoliyatlarning har bir turi bank ushbu operatsiyalarda qanday vaziyatda qatnashishiga qarab ajralib turadi. Yuqoridagi faoliyat turlarining ba'zilar aktiv operatsiyalarga kirs, ba'zilar esa passiv operatsiyalarga kiradi. Daromadlar har bir faoliyat turidan turlicha kelishi mumkin. Aktiv operatsiyalardan keladigan daromad umumiy daromadlarning asosiy salmog'ini tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari daromadlari foizli va foizsiz tushumlar nisbatidan shakllanadi hamda ularning barqarorligi bank faoliyatining umumiy samaradorligi va moliyaviy barqarorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Daromadlarni shakllantirish mexanizmlari kredit risklari, foiz marjasi, likvidlik holati, bank xizmatlari diversifikatsiyasi, aktivlar sifati, boshqaruv samaradorligi va makroiqtisodiy omillar bilan uzviy bog'liq.

Empirik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2024-yilda kreditlar va depozitlar hajmining o'sishi banklarning resurs bazasini mustahkamladi: aholi omonatlari 42 foizga, jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar 20 foizga ortdi. Sof foizli daromadlarning 18 foizga o'sishi foiz siyosati samaradorligini aks ettirdi, biroq foizli xarajatlarning 35 foizga ko'tarilishi va soliqlardan oldingi foydaning 36 foizga kamayishi bank rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar uchun zaxiralarning sezilarli ortishi ham sof foyda pasayishining asosiy sabablaridan biri bo'ldi.

Bank aktivlari bo'yicha rentabellik ko'rsatkichi 2024-yilda 1,4 foizgacha pasaydi. Kapital rentabelligi (ROE) 6,6 foiz darajasida shakllandi. Tavakkalchilikka tortilgan aktivlar ulushining 93 foiz darajada bo'lishi O'zbekiston bank tizimida konservativ yondashuvning saqlanib qolayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, kapital monandlilik koeffitsiyentlarining minimal talabdan ancha yuqori shakllanishi (tizim bo'yicha 17,4 foiz) banklarning qo'shimcha daromadlarni shakllantirish uchun yetarli xavfsizlik yostig'iga ega ekanini ko'rsatadi. Likvidlik indikatorlarining yaxshilanishi (LCR - 194 foiz, NSFR - 115 foiz) banklarning qisqa va uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarni qoplash imkoniyatlari mustahkamligini tasdiqlaydi. Yuqori likvidli aktivlar ulushining oshishi (17,3 foiz) ham banklarning moliyaviy barqarorligini kuchaytirgan. Kredit portfeli tarkibida chakana kreditlar ulushining 33 foizga yetishi, yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbatining 24 foiz bo'lishi kreditlashning iqtisodiyotdagi rolini ko'rsatadi. Biroq, depozitlarning majburiyatlardagi ulushi 47 foiz bo'lib, mintaqaviy davlatlardan pastligi resurs bazasini kengaytirish zaruratiga ishora qiladi.

Umuman olganda, tahlil natijalari tijorat banklari daromadlarini oshirishda kredit portfeli sifati, resurs bazasi barqarorligi, foiz marjasini boshqarish, xizmatlar diversifikatsiyasi, risklarni boshqarish tizimi, likvidlik



ko'rsatkichlarini optimallashtirish va raqamli transformatsiyaning ahamiyati yuqori ekanini tasdiqlaydi. Shuningdek, quyidagi yo'nalishlarni takomillashtirish maqsadga muvofiq: Birinchidan, kredit portfeli sifatini yaxshilash orqali foizli daromadlarni oshirish. Kredit risklarini baholashni avtomatlashtirish, skoring tizimlarini rivojlantirish. Muammoli kreditlar ulushini qisqartirish bo'yicha kompleks choralarni kuchaytirish. Ehtimoliy yo'qotishlarga zaxira ajratish siyosatini optimallashtirish. Ikkinchidan, foizsiz daromadlar ulushini kengaytirish. Raqamli bank xizmatlarini (mobil banking, onlayn to'lovlar, fintech integratsiyasi) kengaytirish. Konsalting, treyding, investitsion xizmatlar kabi qo'shimcha xizmatlar assortimentini oshirish. Komission xizmatlar baholanishi va rentabelligi ustidan monitoringni kuchaytirish. Uchinchidan, resurs bazasining barqarorligini oshirish. Aholi omonatlarini jalb etish bo'yicha rag'batlantiruvchi mexanizmlarni rivojlantirish. Uzoq muddatli depozitlar ulushini oshirish, korporativ mijozlar bilan strategik hamkorlikni kengaytirish. Banklararo bozor va xalqaro moliya institutlaridan arzon resurslarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish. To'rtinchidan, foiz marjasini optimallashtirish. Aktiv va passiv operatsiyalar bo'yicha foiz siyosatini qayta ko'rib chiqish. Resurslar tannarxini pasaytirish va likvidlik boshqaruvini kuchaytirish. Beshinchidan, valyuta operatsiyalaridan daromadlarni barqarorlashtirish. Valyuta risklarini boshqarishda hedging instrumentlaridan faol foydalanish. Ochiq valyuta pozitsiyalarini optimallashtirish.

Oltinchidan, operatsion xarajatlarni kamaytirish. Jarayonlarni raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini keng joriy etish. Filial tarmog'ini optimallashtirish, xizmat ko'rsatish platformalarini markazlashtirish.

Ettinchidan, aktivlarni diversifikatsiya qilish. Qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirokni kengaytirish. Korporativ obligatsiyalar chiqarish orqali daromad manbalarini ko'paytirish. Investitsion portfelni optimallashtirish.

Sakkizinchidan, bozordagi raqobatbardoshlikni oshirish. Innovatsion bank mahsulotlarini yaratish va fintech kompaniyalari bilan hamkorlikni kengaytirish. Mijozlar ehtiyojiga moslashtirilgan individual moliyaviy yechimlar ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 май куни қабул қилинган "2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида"ги ПФ-5992-сонли Фармони.
2. Saunders, A., Cornett, M. Financial Institutions Management: Risks and Cases. McGraw-Hill, 2019.
3. Mishkin, F. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Pearson, 2018.
4. Rose, P., Hudgins, S. Bank Management and Financial Services. McGraw-Hill, 2019.
5. Levine, R. Financial Development and Economic Growth. Journal of Economic Literature, 1997.
6. Demirgüç-Kunt, A., Huizinga, H. Determinants of Commercial Bank Profitability. World Bank WP, 1999.
7. Berger, A., Bouwman, C. Bank Liquidity Creation and Financial Crisis. Review of Financial Studies, 2009.
8. Athanasoglou, P., Delis, M., Staikouras, C. Determinants of Bank Profitability. Journal of Financial Decision Making, 2006.
9. Karimov A. O'zbekiston bank tizimi rivojlanishi va modernizatsiyasi. Toshkent, 2021.
10. To'laganova N. Tijorat banklari daromadlarini shakllantirish omillari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2020.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100